TA’LIM TRANSFORMATSIYASI - AN’ANAVIY TA’LIMDAN INNOVATSION TA’LIMGA YO’L

Abduraxmonova Sevinch Mirjamol qizi
Talabas, GDPI
e-mail: sevinchyusufjonova8@gmail.uz
Avazova Ozoda Shovkatjon qizi
Talabas, GDPI
e-mail: avazovaozoda496@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimining an’anaviy uslublari, ularning bosqichma-bosqich innovatsion ta’limga o‘tish jarayonlari hamda zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. O‘qitish va til o‘rgatish jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va kreativ yondashuvlarning o‘rni hamda ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy til ta’limining o‘qish va o‘qitishdagi roli, integrallashgan til ta’limi metodi orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim transformatsiyasi, kreativ yondashuv, an’anaviy ta’lim, innovatsion ta’lim, o’qituvchilar va o’quvchilar ro’li, integrallashgan ta’lim tizimi, raqamlib texnologiyalar, raqobatdosh kadrlar.

Annotation: This article analyzes the traditional methods of the education system, the gradual transition processes toward innovative education, and the developmental stages of the modern educational system. The study highlights the role and significance of digital technologies, interactive methods, and creative approaches in teaching and language learning. It also discusses the importance of modern language education in the teaching and learning process, focusing on the development of students’ independent thinking and creativity through the integrated language education method.

Keywords: educational transformation, creative approach, traditional education, innovative education, roles of teachers and learners, integrated education system, digital technologies, competitive specialists.

Bugungi kunda ta’lim tizimi boshqa masalalardan farqli o’laroq eng muhim mavzular qatorida kelmoqda. Davlatimizni rivojlantirish, yurtimizni eng rivojlangan mamlakatlar

qatoriga qo’shish uchun bizga yetuk va har tomonlama malakali yosh kadrlar kerakli ekani bu barchamizga sir emas. “Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayo-nining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida samarali o‘zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.”[2,26b.]. Aynan shunday kadrlarni yetishtirb berish va ularni yurtimiz kelajagi uchun masul shaxslar qatoriga qo’shishda ta’lim tizimi asosiy ro’l o’ynab kelmoqda. Ko’plab insonlarni nafaqat, har bir individni shaxs qatoriga qo’shish uchun va ularni yetuk, mustaqil fikrli shaxs darajasiga ko’tarish uchun ta’lim tizimining ahamiyati alohida o’rinda turadi. “Globallashuv sharoitida ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va har tomonlama mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o’rin tutadi”[3,127b.].

Bunday ta’lim tizimi hozirgi raqamli texnologik jarayonlarda va zamonaviylashgan hayot tarzimiz uchun zerikarli va sodda hisoblanadi. Aynan o’quvchilar uchun bunday dars turlari yetarli darajada samara bera olmaydi. Isrtiqbolli kelajakka erishish uchun esa bizga va bizning “Yangi O’zbekiston”imizga yangicha fikrlaydigan kadrlar kerak. Bunday kadrlarni yetishtirish uchun yangi ruhdagi va yangicha tizimdagi ta’lim zarurati tug’iladi. Biz bunday zaruratni Innovatsion ta’lim bilan almashtirsak maqsadga muofiq bo’ladi deb o’ylaymiz. Shuning uchun ham ta’lim transformatsiyasi biz uchun ayni muaddaodir. Bizning maqsadimiz ham ta’limda muammolarni transformatsiya orqali hal etish va maqsadlarimizga erishish uchun ta’lim transformatsiyasi joriy etilishi jadallashtirish va ta’lim transformatsiyasi orqali erishiladigan yutuqlarini ko’rsatib berishdan iboratdir.

An’anaviy ta’lim tizimi uzoq yillar davomida o‘qitishning asosiy shakli bo‘lib, ta’lim jarayonida intizom, tartib va tizimlilikni ta’minlab kelgan. Uning asosiy afzalligi - o‘qituvchining yetakchi rolida bo‘lishi va o‘quv jarayonining qat’iy nazorat ostida olib borilishi bo’lgan. Belgilangan dastur asosida izchil dars o‘tish o‘quvchilarda puxta bilim, mas’uliyat va intizomni shakllantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, o‘qituvchining tajribasi, nutq madaniyati va darsni tashkil etish ko‘nikmalari ta’lim sifatini belgilovchi muhim omillar bo‘lgan.

Bu tizim o‘quvchilarda sabr, e’tibor va mehnatsevarlikni tarbiyalagan. Darslarning mantiqiy ketma-ketligi bilimlarning izchilligini ta’minlagan. Shu bois, an’anaviy o‘qitish o‘z davrida samarali tizim sifatida e’tirof etilgan. Biroq, uning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Avvalo, o‘quvchilarning faol ishtirokini va mustaqil fikrlash imkoniyatini cheklagan. O‘qituvchi markazli yondashuv tufayli o‘quvchilarda ijodkorlik va tanqidiy tafakkur yetarli darajada rivojlanmagan. Darslarning ko‘p hollarda ma’ruza shaklida o‘tilishi amaliy mashg‘ulotlarni kamaytirgan. Shuningdek, sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi individual yondashuvni qiyinlashtirgan.

Bundan tashqari, an’anaviy tizimda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati bo‘lmagan yoki kamdan-kam, bu esa ta’limni zamon talablariga moslashtirishni sekinlashtirgan. Til o’rganishda ham bir qator kamchiliklar ko’zga tashlangan. Xususan til o’rganishda asosan grammatik qoidalar bilan cheklanib qolishgan. Suhbatlashishni o’rganish uchun darslardagi amaliyotning yo’qligi to’siq bo’lgan. Shunga qaramay, an’anaviy o‘qitishdagi qat’iylik, izchillik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar bugungi innovatsion ta’limda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu sababli, hozirgi islohotlar an’anaviy tizimning foydali jihatlarini saqlab, uni interaktiv va raqamli metodlar bilan uyg‘unlashtirib ta’lim transformatsiyasida qo’llash maqsadga muafiqdir.

Ta’lim tizimini yanada isloh qilish o’ta dolzarb masala ekanini O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF -5712 -son bilan “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmonidan bilib olsak bo’ladi [1]. Ushbu konsepsiya ta’lim tizimini tubdan yangilash, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quv jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishni maqsad qilgan. Konsepsiyada ham zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Bugungi davrda ijtimoiy tarmoqlar, internet, zamonaviy texnologiyalar yosh avlodning qon -qoniga singib ketganini va AI (Sun’iy Intellekt) bir mo’jiza kabi hayotimizga kirib kelayotganini hisobga oladigan bo’lsak, an’anviy uslubdagi ta’lim yoshlar uchun zerikarli deb o’ylayman. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yangilash va interaktiv metodlarni samarali joriy etishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Raqamli texnologiyalar interaktiv ta’lim metodlarini kuchaytirib, ta’lim samaradorligi, o‘quvchi faolligi va ijodkorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.
2. Z. F.Sharopova. (2019). Ta’lim texnologiyalari -Toshkent.
3. R. R. Zamilova. (2023). Uzluksiz ta’limpedagogikasi va inklyuziv ta’lim - Namangan.
4. B. X. Xodjayev. (2017). Umumiy pedagogioka nazariyasi va amaliyoti -Toshkent.